

"O'zkimyosanoat" AJ Seul shahrida bo'lib o'tgan muhim minerallar bo'yicha O'zbekiston-Janubiy Koreya biznes-forumida ishtirok etdi

// 29.01.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-seul-shahrida-bo-lib-o-tgan-muhim-minerall>



Mamlakatimiz elchixonasi ko'magida O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, "O'zbekiston texnologik metallar zavodi" AJ, "O'zkimyosanoat" AJ va Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi vakillaridan iborat delegatsiyaning Janubiy Koreyaga tashrifi tashkil etildi, deb xabar qildi "Dunyo" AA muxbiri.

Tashrif doirasida mamlakatimiz delegatsiyasi Koreya Respublikasi Savdo, sanoat va energetika vazirligi bilan hamkorlikda tashkil etilgan muhim foydali qazilmalar bo'yicha O'zbekiston - Janubiy Koreya biznes-forumida ishtirok etdi.



Unda "LG Ensol", "Samsung SDI", "SK On", "Posco", "TaeguTech", "KHNP", "KOMIR", "LX International", "KCC Corporation", "EcoBio" singari yigirmadan ortiq yirik kompaniyalar hamda Koreya sanoat texnologiyalari instituti (KITECH), Koreya geologiya va mineral resurslar instituti (KIGAM) va boshqalar qatnashdi.

O'zbekiston vakillari o'z ma'ruzalarida ikki tomonlama hamkorlikning bugungi holati, shuningdek, geologiya, metallurgiya va kimyo sanoati sohalaridagi aniq loyihalar haqida so'zlab berishdi. "O'zkimyosanoat" AJ vakillari ishlab chiqaruvchilar va kimyoviy mahsulotlar yetkazib beruvchilar qo'llaniladigan imtiyoz va preferensiyalar haqida atroflicha ma'lumot berishdi.

Mamlakatimiz diplomatik vakolatxonasi ma'lumotiga ko'ra, Koreya Respublikasi Savdo, sanoat va energetika vaziri o'rinbosari Li Xoxyon bilan muloqotda O'zbekiston - Koreya Respublikasi nodir metallar ilmiy-texnologik markazi ilmiy ishlanmalarini tijoratlashtirish bo'yicha hamkorlikdagi ishlarni faollashtirishga alohida e'tibor qaratildi.



Janubiy Koreya kompaniyalari bilan o'tkazilgan ikki tomonlama muzokarlarda O'zbekistonda yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish istiqbollari atroflicha muhokama qilindi. Xususan, "NEW&NEW" kompaniyasi bilan birgalikda kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarish, "Kumho P&B Chemicals" va "Lotte Chemical" kompaniyalari bilan kimyo mahsulotlari, "KCC Corporation" bilan qurilish materiallari ishlab chiqarish, "EcoBio" bilan chiqindilarni qayta ishlash majmuasini qurish, shuningdek, "Shindong Resources" bilan "Sautbay" volfram konini o'zlashtirish imkoniyatlari xususida fikr almashildi.



Janubiy Koreyaning Kimyoviy menejment assotsiatsiyasi bilan mamlakatimiz sanoat salohiyati bilan tanishish uchun yirik kimyo kompaniyalari vakillarining O'zbekistonga safarini tashkil etish masalasi muhokama qilindi.



Tashrif yakunlari bo'yicha yangi loyiha va tashabbuslarni amalga oshirish mexanizmlari bo'yicha "yo'l xaritasi" imzolandi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati